

**Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligida
2025-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish
sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
UMUMIY HISOBOT**

Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligida (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralari ko‘rish borasida muntazam ishlar olib borilmoqda.

Agentlikda korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf qilish hamda **“Korrupsiyadan holi”** muhitni yaratish borasida chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha **“Yo‘l Xaritasi”** va Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha **2025-yil birinchi va ikkinchi yarim yilligi uchun Ish Rejasi** ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Mazkur hujjatlar doirasida tegishli tadbirlar belgilangan muddatlarda amalga oshirildi.

Hisobot davrida korrupsiyaga qarshi talablar va axloqiy me‘yorlarga va qonun hujjatlariga qat’iy amal qilishga doir bevosita Agentlik direktori Sh. Xodjayev tomonidan tadbir o‘tkazildi va unda barcha xodimlarga tegishli topshiriqlar berildi. Shuningdek direktor o‘rinbosari A.Otaboyev tomonidan xodimlarning sohadagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida seminarlar tashkil etildi.

Xususan, **O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida” Qonuni** talablarini xodimlarga yetkazish maqsadida joriy yilning 17-yanvar kuni seminar tashkil etildi va xodimlar o‘rtasida tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

12-fevral kuni **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”** Davlat dasturining maqsad va vazifalari, mazmun-mohiyatini, shu o‘rinda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha topshiriqlarni yetkazishga bag‘ishlangan tadbir o‘tkazildi.

27-mart kuni Bosh prokuratura bilan hamkorlikda joriy yilning 5-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Milliy Kengashning **“Korrupsiyani oldini olish bo‘yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar”**ga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishda belgilab berilgan muhim topshiriqlar yuzasidan seminar bo‘lib o‘tdi.

Joriy yilning 23-aprel kuni Agentlik direktori Sh.X. Xodjayev rahbarligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”** Farmoni (PF-71-son, 21.04.2025-y.) hamda **“Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** qarori (PQ-147-son, 21.04.2025-y.) mazmun-mohiyatini xodimlarga yetkazishga qaratilgan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Ushbu yig'ilishda farmon va qarorlarda belgilangan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib, Agentlik o'z oldiga korrupsiyaga qarshi kurashish borasida bajariladigan vazifalarni belgilab oldi.

2025-yil 26-iyun kuni Agentlikda direktor o'rinbosari A. Otaboyev boshchiligidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”** 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida, korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olishga bag'ishlangan o'quv seminari o'tkazildi.

Seminarda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaruvchi holatlar, bunday vaziyatlarda xodimning huquqlari va majburiyatlari, oldini olish choralari va javobgarlik turlari haqida ma'lumotlar berildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda **“Halollik vaksinasi”** mavzusida joriy yilning 12- sentyabr kuni davra suhbat tashkil etildi. Ishtirokchilar bilan energetika sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsion xavflar, manfaatlar to'qnashuvi holatlari va ularning oldini olish mexanizmlari xususida atroflicha fikr almashildi.

9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligida **“Ochiq eshiklar kuni”** tadbiri o'tkazildi. Tadbirida Agentlik faoliyatida ochiqlikni ta'minlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish va bartaraf etish, sohada zamonaviy korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarini joriy etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar, bloggerlar va jamoatchilik vakillariga ma'lumotlar berildi.

Hisobot davrida Agentlik xodimlarida korrupsiyaga nisbatan muvosiis munosabatni shakllantirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida jami **36 ta** tushuntirish-profilaktik tadbirlari amalga oshirildi.

Shu bilan birga, joriy yil mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturiga muvofiq quyidagi ishlar amalga oshirildi.

1. Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosat va tartib-taomillar

Hisobot davrida Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmini takomillashtirish maqsadida **korrupsiyaga qarshi kurashishga oid quyidagi 14 ta ichki idoraviy hujjatlar yangi tahrirda qabul qilinib, “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi Qonun va boshqa yangi qabul qilingan qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirildi:**

- Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati;
- Agentlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti;
- Agentlikda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom;

- Agentlikning aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti;
- Agentlik xodimlarning etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma;
- Agentlikda kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma;
- Agentlikka ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma;
- Agentlikda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti;
- Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom;
- Agentlik xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament;
- Odob axloq qoidalari;
- Tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olishni tashkil qilish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi reglament;
- Xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom;
- Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom.

Qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlar va tartib-qoidalar o'rnatilgan tartibda **barcha xodimlarga tanishtirildi** va tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

Yuqoridagi barcha ichki me'yoriy hujjatlar va tartib-qoidalar **elektron tarzda axborot olish va shaffoflikni ta'minlash** uchun Agentlikning ichki tarmog'i va rasmiy veb-saytiga joylashtirildi.

2. Xavf-xatarlarni baholash

Agentlikda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularni oldini olish va chek qo'yish, korrupsiya oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatga imkon beruvchi barcha sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida Agentlikdagi barcha lavozimlar va funksiyalar tahlil qilinib, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar asosida **Agentlikda korrupsiogen xavf-xatarlar xaritasi tuzildi**. Unga ko'ra, Agentlikning 27 ta funksiyalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjudligi, shundan 10 tasida korrupsiya xavf-xatari "**O'rta**" hamda 17 tasida "**Past**" daraja qayd etilgan. Bu yo'nalishdagi ishlar alohida Ish reja asosida davom ettirilishi belgilandi va Agentlikning korrupsiogen xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati shakllantirildi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish choralari ishlab chiqildi hamda mas'ullar va tadbirlar muddatlari belgilandi va ijroga qaratildi.

3. Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

Agentlikning lokal me'yoriy hujjati — “Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom” tashkilot standarti talablariga muvofiq korrupsiogen omillarning barvaqt oldini olish, ularni bartaraf etish maqsadida har yili barcha xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish shakli — deklaratsiya to'ldirilishi belgilab qo'yilgan. Shu maqsadda **Agentlikning jami 24 nafar (boshqaruv va texnik) xodimi tomonidan 2025-yil uchun deklaratsiya to'ldirildi.**

Agentlik xodimlarining deklaratsiyalari tahlili natijasida manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmadi.

4. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik sohasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Agentlikning rasmiy saytida ikkita (o'zbek, ingliz) tilda korrupsiyaga qarshi kurashish sahifasi ochilgan va bu yo'nalishdagi ichki me'yoriy hujjatlar joylashtirilgan hamda Agentlikda **korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar doimiy yoritib borilmoqda.**

Shuningdek, Agentlik xodimlarining korrupsion harakatlari yuzasidan **xabar berishga mo'ljallangan ishonch telefoni, elektron pochta va aloqa kanallari tashkil etilib**, ular to'g'risidagi ma'lumotlar tashkilotning **rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoq kanallarida** ochiq joylashtirildi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati”, “Halollik vaksinasi” hamda **“Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi”** Qonun talablarini xodimlarga yetkazish maqsadida **targ'ibot materiallari tayyorlandi.** Ularni ommalashtirish maqsadida Agentlikning **ijtimoiy tarmoq kanallari va rasmiy veb-saytiga** joylashtirildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan Dasturlarda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorakda hisobot tayyorlanib, “e-anticor.uz” platformasi orqali Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga hamda yozma ravishda Hisob Palatasiga yuborilishi ta'minlandi.

5. Agentlikda xaridlarni tashkil etish

Agentlik tomonidan 2025-yil davomida jami **642 120 257** so'mlik jami **52** ta shartnomalar O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to'g'risida” Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-son qarori talablari asosida rasmiylashtirilgan.

Shulardan **29** ta xarid (**527 769 900** so'm) elektron do'kondan, **17** ta (**114 350 357** so'm) shartnomalar yagona yetkazib beruvchilar bilan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-sonli qarori talablari asosida) imzolangan.

6. Qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida" Qonuni ijrosini ta'minlash yuzasidan Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi tomonidan 2024 – 2025-yillar davomida **ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilishi ta'minlandi.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlashda yuzaga keladigan texnologik sarfning ruxsat etilgan me'yorlarini hisoblash hamda tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2025-yil 29-iyuldagi 472-son qaroriga asosan **texnologik yo'qotishlarning ruxsat etilgan me'yorlarini hisoblash** hamda tasdiqlash tartibi hamda ushbu jarayonlardagi institutsional tartibga solinishi orqali **vakolatli organlarning javobgarliklari belgilandi.**

Qaror bilan yo'qotishlar me'yorlarini **hisob-kitob qilish jarayoni raqamlashtirilishi orqali inson omilini kamaytirish** hamda hisob-kitoblar uchun foydalaniladigan birlamchi ma'lumotlarning "O'zenergoinspeksiya" tomonidan ko'rib chiqilishi va kelishilishi ushbu jarayonda **korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.**

Yo'qotishlar me'yorlarini hisoblashning yagona metodikasi, barcha subyektlar uchun teng yondashuv va ochiqlikni ta'minlaydi hamda monitoring va javobgarlik mexanizmlari belgilaydi.

Shuningdek, hisobot davrida yo'qotishlar me'yorlarini hisoblashda foydalanilgan birlamchi ma'lumotlarning ixtiyoriy bittasi **5 foizdan ortiqqa o'zgarishi yuzaga kelgan holda**, tasdiqlangan me'yorlarni qayta ko'rib chiqish tartibi kiritildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Elektr energetikasi to'g'risida" Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining "Elektr energetikasi sohasidagi faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2025-yil 13-fevraldagi 91-son qaroriga muvofiq elektr energetikasi sohasida faoliyat yurituvchi subyektlarni litsenziyalashni amalga oshiradi. Litsenziyalashning asosiy maqsadi – energetika bozorining qonuniy, shaffof va barqaror rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati belgilangan texnik va normativ talablarga muvofiqligini nazorat qilishdan iborat.

Litsenziyalash davomida korrupsiya xavfini minimallashtirish va shaffoflikni oshirish maqsadida **barcha jarayonlar to'liq raqamlashtirilishi belgilangan**, jumladan arizalarni "**Litsenziya**" axborot tizimi va **Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YAIDXP) orqali elektron shaklda topshirish tizimi yo'lga qo'yilgan.** Shuningdek, litsenziya oluvchilar uchun yagona talablar ishlab chiqilgan bo'lib, berilgan litsenziyalar haqida ochiq ma'lumotlar e'lon qilib borilmoqda.

7. Ta'lim va kommunikatsiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF- 71-son Farmoni bilan tasdiqlangan "**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning 2025-yil 5-martda o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishida**

belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturi"ning 26.1-bandiga ko'ra, "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi"da Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo'yicha **bosh mutaxassis lavozimiga yangi tayinlangan xodim malakasini oshirdi.**

Shuningdek, Agentlikning Korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan lavozimlarda faoliyat ko'rsatayotgan besh nafar xodimi O'zbekiston Respublikasi Huquqni Muhofaza Qilish Akademiyasida "Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish" mavzusidagi maxsus chuqurlashtirilgan onlayn o'quv kursini muvaffaqiyatli tamomladi.

Shu bilan birga 2 va 4 chorak yakuni bilan Agentlik xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuviga oid **bilim va ko'nikmalarini baholash yuzasidan test sinovlari** tashkil etildi.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi" ISO 37001:2016 xalqaro sertifikatini olish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlari boshlandi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligida ISO 9001:2015 **"Sifat menejmenti tizimlari. Talablar"** hamda ISO 37001:2025 **"Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi"** standartlari asosida joriy etilgan tizimlarni sertifikatlashtirish uchun sertifikatlashtirish organi tanlovi e'lon qilindi.

8. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Agentlikda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va chek qo'yish, oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida quyidagi vazifalarni belgilab olindi:

- Agentlik xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishlari bo'yicha doimiy malakasini oshirib borish;
- Davlat xaridlarini amalga oshirishda har bir kontragentni tekshirish va davlat xaridlari to'g'risidagi normativ hujjatlar asosida davlat xaridlarini tashkillashtirish;
- Agentlik xodimlari tomonidan ichki tartib qoidalarga, shu jumladan, "Odob-axloq qoidalari" talablariga rioya etilishini o'rganish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha tizimli tahlil o'tkazish;
- sohaga oid ichki me'yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish va tatbiq etish;
- faoliyatni raqamlashtirish va ochiqlikni ta'minlashni jadallashtirish;
- korrupsiyaga taalluqli murojaatlarning adolatli va xolis ko'rib chiqilishini ta'minlash, mazkur sohada huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilinayotgan chora-tadbirlar samaradorligini har chorakda baholash va aniqlangan holatlar asosida qo'shimcha tadbirlar ishlab chiqish.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish va
komplayens bo'yicha bosh mutaxassis**



N. Aminov